

Linguostatistical analysis of emotional-lexical units in Ulugbek Hamdam's story "Loneliness" (based on the AntConc program)

Dilrabo KHOLBEKOVA¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2025

Received in revised form 5

September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online 25 October
2025

Keywords:

emotionality,
lexicology,
linguostatistics,
corpus linguistics,
analysis,
frequency count,
text analysis,
unit analysis

ABSTRACT

This article presents a linguo-statistical analysis of emotional-lexical units in Ulugbek Hamdam's novella Loneliness. Using the AntConc software, forty emotional units were extracted from the text and their frequencies were determined. These units were categorized into semantic groups, and their percentage distribution is illustrated. The KWIC (Key Word in Context) function was applied to examine the contextual features of selected units in both left and right contexts (i.e., preceding and following words). The findings reveal that the emotional vocabulary in the author's style serves as a key means of expressing human psychology, inner experiences, and artistic imagery. The study demonstrates the effectiveness of linguo-statistical analysis for examining literary texts.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss9/S-pp1-8>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ulug'Bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasida emotsional-leksik birliklarning lingvostatistik tahlili (AntConc dasturi asosida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

emotsiyanalilik,
leksikologiya,
lingvostatistika,
korpusologiya,
analiz,

Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasidagi emotsional-leksik birliklar lingvostatistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda AntConc dasturidan foydalanilib, matndan 40 ta emotsional birlik ajratib olindi va ularning chastotasi aniqlandi. Shuningdek, birliklar semantik guruhlariga

¹ Teacher, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
E-mail: dilyaxolbekova4@gmail.com

chastota hisobi,
matn tahlili,
birlik tahlili.

ajratilib, ularga xos foizli taqsimot ko'rsatildi. KWIC funksiyasi yordamida ayrim birliklarning chap va o'ng kontekstdagi qo'llanish xususiyatlari ochib berildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, muallif uslubida emotsional leksika inson ruhiyati, ichki kechinmalar va badiiy obrazlarni ifodalashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot badiiy matnni lingvostatistik tahlil qilishning samarali imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Лингвостатистический анализ эмоционально-лексических единиц в повести Улугбека Хамдама "Одиночество" (на основе программы AntConc)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

эмоциональность,
лексикология,
лингвостатистика,
корпусная лингвистика,
анализ,
частотный подсчет,
анализ текста,
анализ единиц.

В данной статье проведён лингвостатистический анализ эмоционально-лексических единиц в повести Улугбека Хамдама «Одиночество». С использованием программы AntConc из текста было выделено 40 эмоциональных единиц и определена их частотность. Единицы распределены по семантическим группам; представлено их процентное соотношение. С помощью функции KWIC раскрыты особенности употребления отдельных единиц в левом и правом контекстах. Результаты показали, что эмоциональная лексика в авторском стиле служит основным средством выражения внутреннего мира человека, его переживаний и создания художественных образов. Исследование демонстрирует эффективность применения лингвостатистического анализа в изучении художественного текста.

KIRISH

Inson qalbi ko'pincha so'zlarda yashiringan bo'ladi. Adabiy matn aynan shu yashirin hislarni yuzaga chiqaradi. Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasi ham shunday asarlardan biri bo'lib, unda insonning eng nozik ruhiy kechinmalari tasvirlanadi. Qahramonning iztiroblari, yolg'izlikdan tug'ilgan alam va baribir umidga intilishi asar tilida ko'plab emotsional so'zlar orqali ifodalanadi. Bu so'zlarning tez-tez ishlatilishi tasodif emas, balki yozuvchining badiiy maqsadiga xizmat qiladi.

Shu bois, ushbu tadqiqotda "Yolg'izlik" qissasida uchraydigan emotsional-leksik birliklar alohida e'tiborga olinadi. AntConc dasturi yordamida ular aniqlanib, chastotasi hisoblab chiqildi va ma'lum guruhlariga ajratildi. Natijada yozuvchi tilidagi his-tuyg'u qatlamini nafaqat sezish, balki raqamlar orqali ham ko'rish imkoniyati paydo bo'ldi.

Tadqiqotning maqsadi — "Yolg'izlik" qissasida emotsional-leksik birliklarni aniqlash, ularning chastotasini hisoblash va semantik guruhlar bo'yicha lingvostatistik tahlil qilishdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqot materiali sifatida Ulugʻbek Hamdamning “Yolgʻizlik” qissasidan 4000 ta soʻzdan iborat parcha tanlab olindi. Ushbu parcha AntConc dasturiga yuklandi va dastur imkoniyatlari asosida lingvostatistik tahlil amalga oshirildi.


Dasturiy vosita. AntConc dasturining Word List va KWIC (Key Word in Context) funksiyalaridan foydalanildi. Word List yordamida matndagi barcha soʻzlarning chastotasi hisoblandi, KWIC funksiyasi orqali esa emotsional birliklarning matndagi qoʻllanish konteksti kuzatildi.

Emotsional birliklarni aniqlash. Tadqiqotda emotsional leksika qoʻlda aniqlanib, matndan alohida ajratib olindi. Natijada jami 40 ta emotsional-leksik birlik belgilandi va ularning chastotasi hisoblab chiqildi.

Semantik guruhlar. Ushbu birliklar maʼno yaqinligiga koʻra 7 ta semantik guruhga ajratildi (masalan: iztirob va azobga oid, yolgʻizlikka oid, muhabbat va umidga oid, qoʻrquvga oid, negativ hissiyotlarga oid va boshqalar).

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqotda Ulugʻbek Hamdamning “Yolgʻizlik” qissasi asosida tuzilgan 4000 soʻzdan iborat matn ustida AntConc dasturi yordamida 40 ta emotsional-leksik birlik ajratib olindi. Ushbu birliklarning chastotasi quyidagi jadvalda keltirilgan.



Jami: 40 ta leksik birlik, umumiy chastota – 163 ta qoʻllanish.

Keyingi bosqichda soʻzlar 7 ta semantik guruhga ajratildi va ularning chastotasi hamda umumiy korpusdagi ulushi hisoblandi.

1-jadval.

Emotsional-leksik birliklarning semantik guruhlar bo'yicha taqsimoti

№	Semantik guruh	So'zlar soni	Chastotasi	Umumiy so'zlar soni	Umumiy chastota	Ulushi
1	Iztirob, azob	Iztirob	19			
		Giriftor	4			
		Azob	17	5ta	44	27,0%
		Ayovsiz	2			
		Do'zax	2			
2	Yolg'izlik, ruhiy tushkunlik	Yolg'izlik	18			
		Arosat	4			
		Bechora	4	6ta	34	20,9%
		Qayg'u	4			
		Karaxtlik	2			
		Mahzun	2			
3	Muhabbat, sog'inch	Sevaman	5			
		Sevgi	4			
		Sog'inch	3	5ta	17	10,4%
		Sevinch	2			
		Muhabbat	3			
4	Ichki holat, hayajon	Hayrat	5			
		Hayajon	5			
		Talvasa	3			
		Shoshib	3	7ta	23	14,1%
		Yutoqib	3			
		Dovdirab	2			
		Junbush	2			
5	Hissiy portlashlar(yig'li, faryod)	Dod	13			
		Faryod	8			
		Yig'li	2	4ta	25	15,3%
		Bo'zlamog	2			
6	Salbiy emotsiyalar, negativ fon	La'nati	3			
		Yovuz	3			
		Ijirg'andi	2	6ta	16	9,8%
		Nafrat	2			
		Gunoh	4			
		Bezovta	2			
7	Umid, ijobiy emotsiya	Baxt	11			
		Umid	4	3ta	18	11,0%
		Maza	3			
	JAMI			36ta	163	100%

Eng katta guruh – “Iztirob, azob” (27,0%). Bu guruhdagi soʻzlar qissaning asosiy gʻoyaviy yoʻnalishini, yaʼni insonning ichki ruhiy iztiroblarini aks ettiradi.

Ikkinchi oʻrinda – “Yolgʻizlik va ruhiy tushkunlik” (20,9%), qissaning sarlavhasi ham shu toifaga toʻgʻri kelishi bejiz emas. Bu obrazlar qahramonning ichki tanholigi va tushkun kayfiyatini kuchaytiradi.

“Hissiy portlashlar (yigʻi, faryod)” (15,3%) ham yuqori koʻrsatkichga ega boʻlib, bu qahramonning ichki toʻlqinlanishi koʻpincha tashqi ifodada (dod, faryod) namoyon boʻlishini koʻrsatadi.

“Ichki holat, hayajon” (14,1%) qahramon ruhiyatidagi nozik kechinmalarni ochib beradi.

“Muhabbat va sogʻinch” (10,4%) qissaning ogʻir ruhiy fonida ijobiyroq mazmun kiritib, qahramonning ichki qarama-qarshiliklarini koʻrsatadi.

“Umid, ijobiy emotsiya” (11,0%) – salbiy kayfiyatlar fonida yorugʻlik timsoli sifatida chiqadi, ammo chastotasi nisbatan past.


“Salbiy emotsiyalar, negativ fon” (9,8%) esa umumiy muhitning ogʻir va zulmatli koʻrinishini taʼkidlaydi. Shu tariqa, natijalar shuni koʻrsatadiki, qissada salbiy emotsional birliklar (iztirob, azob, yolgʻizlik, yigʻi, faryod, laʼnat va h.k.) ustunlik qiladi. Bu esa Ulugʻbek Hamdam qahramonining ichki dunyosini keskin, dramatik ohangda tasvirlaganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, baxt, umid, sevgi kabi ijobiy birliklar ham uchrab, qahramon ruhiyatida muvozanat izlash jarayonini koʻrsatadi.

File	Left Context	Hit	Right Context
1	Ёлғизлик ... тийиксиз ва ўта кучли истак-ла, соғинч-ла,	изтироб-	ла талпинсам-да, сўнггида барибир, заминга
2	Ёлғизлик ... қ эди – эракнинг пинжиги сингиб кетди ва	изтироб-	ла шивирлади: “Мени қийнаб юбординг!”
3	Ёлғизлик ... АН ХАЛОС БЎЛГАН БЎРИНИНГ КЎЗЛАРИДА	ИЗТИРОБ	АРАЛАШ ОЗОДЛИК НАШИДАСИ ЎЙНАЙДИ
4	Ёлғизлик ... дидир, менинг ўзимдирман ўша масофа, ўша	изтироб...	Ажаб, сен хануз ўзингни келажакдаги аллақ
5	Ёлғизлик ... рган ҳаяжон – Сендан! Уйқусизлик етказган	изтироб –	боз Сендан!.. Фақат мен билмайман: Сен ки
6	Ёлғизлик ... ҳояси тагин айрилиқ, тагин ёлғизлик, тагин	изтироб,	боши бору кети йўқ дард, алам...” давом этг
7	Ёлғизлик ... қилгани каби сен-да санъаткор бўлиб, аҳли	изтироб	бўйидаги тавқи лаънатни парчалашинг, уни
8	Ёлғизлик ... а чирпирак қилиб учуриб турган шиддатли	изтироб	илдизи тахминан ана шу бўшлиқда дея мулс
9	Ёлғизлик ... инг исми Ёлғизлик эди ва у битмас туганмас	изтироб	келтирарди... Бўшлиқ... Гўё гавжум бозор ич

Qissada “iztirob” soʻzi 19 marta qoʻllangan boʻlib, uning atrofidagi chap va oʻng kontekstlar emotsional-mazmuniy jihatdan muhim maʼlumot beradi. Chap kontekstdagi birliklar koʻpincha iztirobning kelib chiqish manbalarini ifodalaydi: “sogʻinch”, “uyqusizlik”, “yolgʻizlik”, “ayriliq” kabi leksik birliklar inson ruhiyatida iztirobni vujudga keltiruvchi omillar sifatida namoyon boʻladi. Oʻng kontekst esa iztirobning oqibatlari va taʼsirini ochib beradi: “qiynab yuborish”, “ozodlik nashidasi”, “tavqi laʼnat” kabi soʻz va iboralar orqali iztirobning ijtimoiy-psixologik jihatlarini yoritiladi.

Shunday qilib, “iztirob” soʻzi qissada emotsional-dominanta sifatida namoyon boʻlib, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini chuqur yoritishga xizmat qiladi. U nafaqat individuallashgan tuygʻuni, balki butun asarda hukmron kayfiyatni ham ifodalaydi. KWIC tahlili shuni koʻrsatadiki, muallif “iztirob”ni boshqa emotsional-leksik birliklar bilan uygʻunlashtirib, inson ruhiyatidagi ogʻir kechinmalarni keng qamrovli badiiy tasvirlashga erishgan.

KWIC tahlili: “azob” soʻzi:



AntConc dasturi orqali olingan KWIC natijalari asosida “azob” soʻzining chap va oʻng kontekstdagi qoʻllanishlari quyidagicha kuzatildi:


1. Chap kontekstda koʻproq manbaga ishora qiluvchi soʻzlar (“zolimsan”, “sanchilib”, “nosamimiylik”, “shiddatli”) ishlatilgan boʻlib, ular azobning kelib chiqish sababini koʻrsatadi. Bu holatda “azob” tashqi kuchlar – zolim, yolgʻon, qoʻpol harakatlar orqali insonga taʼsir qiluvchi dard sifatida talqin qilinmoqda.

2. Oʻng kontekstda esa “azob” koʻproq taʼsir va oqibatni ifodalaydi: (“berayotgan”, “bilan olishadi”, “baland ovozda yangrayotgan”, “dod”, “bosib oʻtaman”). Bunda azobning odamni qiynashi, ichki iztirobga aylanishi, hatto ovoz, dod va nolaga chiqishi ochiq koʻrsatiladi.

3. Maʼno jihatidan “azob” soʻzi bu yerda inson ruhiyati va jismoniyati oʻrtasidagi keskin bogʻliqlikni ifodalaydi. Bir tomondan u tashqi sabablar tufayli yuzaga keladi (zolim, yolgʻon, ogʻriq), ikkinchi tomondan u ichki iztirob, dard, nolaga aylangan holda qahramon kechinmalarini ochib beradi.

4. Stilistik jihatdan “azob” oʻzining kuchli emotsional-semantik yukiga ega boʻlib, muallif uni koʻpincha boshqa soʻzlar bilan birgalikda (shiddatli azob, azob bilan olishmoq, baland ovozda yangrayotgan azob) kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatadi. Bu esa qissa matnida ruhiy kechinmalarni dramatiklashtirishga xizmat qiladi.

KWIC asosida “baxt” soʻzining chap va oʻng konteksti:



“Baxt” leksik birligi chap va o’ng kontekstdagi qo’llanishiga ko’ra turli semantik maydonlarda namoyon bo’ladi:

Subyektiv hissiy qiymat – “nafas”, “o’zimni yo’qotib topish”, “ruh” kabi so’zlar bilan qo’llanib, baxt insonning ichki ruhiy kechinmalarini ifodalaydi.

Obyektiv ne’mat – “quyosh”, “Xudo ato etdi” kabi kontekstlarda baxt ilohiy in’om sifatida tushuniladi.

Vaqt va xotira – “o’tishga aylangan baxt”, “ma’lum muddat” kabi birliklar baxtni vaqt bilan chegaralangan, sarob yoki o’tkinchi hodisa sifatida ochib beradi.

Antitezali qo’llanish – “baxt-kulfat” qarama-qarshiligi mazkur birlikning emotsional-aksial qimmatini yanada kuchaytiradi.

Shu orqali ko’rinadiki, baxt qissada insonning ruhiy-psixologik kechinmalari, ilohiy taqdir, vaqt o’tinchiligi va hayot falsafasi bilan bevosita bog’liq holda ishlatilgan.

Tahlillar Ulug’bek Hamdamning “Yolg’izlik” qissasida emotsional-leksik birliklar yuqori badiiy-estetik yuklamaga ega bo’lib, asarda inson ruhiyatining nozik kechinmalari lingvostatistik usulda ham yaqqol namoyon bo’lishini ta’kidlaydi. AntConc dasturi orqali aniqlangan chastotalar “azob”, “baxt”, “yolg’izlik” kabi emotsional birliklar eng faol qo’llangan leksik qatlamni tashkil etoshini qayd etadi. Ularning ko’p ishlatilishi bevosita qissaning g’oyaviy-badiiy mazmuni bilan bog’liq: muallif qahramonning ichki dunyosini, kechinmalaridagi ziddiyatlarni ana shu so’zlar vositasida ifodalaydi.

Semantik guruhlariga ajratilganda ham emotsional so’zlarning asosiy qismi abstrakt tushunchalar (umumiy 43%) guruhida jamlanganligi kuzatildi. Bu esa asarda hissiy-emotsional tajribalar, falsafiy mushohadalar va ruhiy kechinmalar markaziy o’rinni egallashidan dalolat beradi. Shuningdek, shaxsiy kechinmalarni bildiruvchi so’zlar (27%) va tabiat hodisalari bilan bog’liq emotsional birliklar (18%) ham qahramon ruhiyatini tasvirlashda muhim semantik qatlamni hosil qiladi.

KWIC tahlili esa ushbu birliklarning kontekstual qo’llanish xususiyatlarini ochib berdi. Masalan, “azob” so’zi ko’pincha shaxsiy ruhiy iztirob, og’riq va nola bilan bog’liq kontekstlarda uchrasa, “baxt” esa umid, orzu, ba’zan esa sarob va aldanish singari salbiy

ohangdagi birliklar bilan yonma-yon qo'llangan. Bu esa muallifning baxtni ham nisbiy tushuncha sifatida tasvirlashga intilganidan dalolat beradi.

Demak, lingvostatistik usulda aniqlangan natijalar nafaqat leksik birliklarning miqdoriy ko'rinishini, balki ularning semantik va kontekstual funksiyasini ham ochishga xizmat qildi. Bu yondashuv an'anaviy badiiy tahlilni lingvistik-statistik izohlar bilan boyitib, muallif uslubining o'ziga xosligini yanada aniqroq ko'rsatdi.

XULOSA

Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasi lingvostatistik jihatdan tahlil qilinganda, emotsional-leksik birliklarning yuqori darajada qo'llangani aniqlandi. AntConc dasturida aniqlangan chastotalar asarda qahramonlarning ruhiy kechinmalari va ichki dunyosini ochib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, "azob", "baxt", "yolg'izlik" kabi so'zlarning ko'p ishlatilishi muallifning badiiy niyatini yorqin ifodalab, asarda hukm suruvchi ruhiy iztirob va falsafiy mushohadani yoritadi.

Semantik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, emotsional birliklarning asosiy qismi abstrakt tushunchalar guruhiga to'g'ri keladi. Bu esa asarning mazmunida falsafiy mushohada va inson ruhiyatining nozik qirralari yetakchilik qilishini tasdiqlaydi. KWIC tahlili esa bu so'zlarning kontekstual qo'llanishini ochib berib, "azob"ning ruhiy og'riq va nola bilan, "baxt"ning esa ko'proq sarob va umid bilan uyg'un holda ishlatilganini ko'rsatdi.

Umuman olganda, lingvostatistik yondashuv an'anaviy badiiy tahlilni boyitib, muallifning individual uslubini yanada ravshanlashtirdi. Shu tariqa, emotsional-leksik birliklarning miqdoriy, semantik va kontekstual o'rganilishi "Yolg'izlik" qissasida g'oyaviy-badiiy mazmunni shakllantirishda ularning beqiyos ahamiyatga ega ekanini namoyon qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva M. Leksik birliklarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2012. – 180 b.
2. Бегматов Э. Ўзбек тилининг функционал стилистикаси. – Тошкент: Университет, 2010. – 220 б.
3. Хожиев А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: О'qituvchi, 1981. – 240 б.
4. Махмудов Н. О'zbek tilining matn lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 196 б.
5. Xalilov A. Matn va uning lingvopoetik talqini. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 210 б.
6. Hamdam U. Yolg'izlik: qissa. – Toshkent: Sharq, 2018. – 128 b.
7. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 280 p.
8. Baker P. Using Corpora in Discourse Analysis. – London: Continuum, 2006. – 236 p.
9. Stubbs M. Text and Corpus Analysis. – Oxford: Blackwell, 1996. – 280 p.
10. Hunston S. Corpora in Applied Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 240 p.
11. O'zbekiston Milliy korpusida matn tahlili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 150 b.